

UDK:632+632.772

ISSIQXONALARDA OQ QANOT ZARARKUNANDASIGA QARSHI KURASHISH CHORALARI

Zinatdinov Nuratdin Mnajatdinovich, Jumabayeva Rayxan Rustem Qizi
O'simliklar karantini va himoyasi ilmiy-tadqiqot instituti Qoraqalpog'iston
Respublikasi filiali laboranti

Abstract: *About the white-winged pest in greenhouses for farmers and farm land owners who grow agricultural products.*

Key words: *White winged pest, damage, morphology, method of combating it.*

Issiqxonalar O'zbekiston Respublikasi qishloq xojaligining asosiy yo'nalishidir. Issiqxona o'simliklarining hosili yiliga kasallik va zararkunanda ta'sirida 20-30% gacha nobud bo'ladi. Barqaror issiqxonalardan hosil olishda asosiy to'siqlardan biri issiqxona oq qanot zararkunandasidir. Teng qanotlilar (Homoptera) turkumining aleyrodid yoki oqqanotlar (Aleyrodidae) oilasiga mansub. Ularning qarib 1200 turi aniqlangan (Byrne, Bellows, 1991). O'zbekistonda ularning 4 ta turi tarqalgan.

Issiqxona oq qanoti (*Trialeurodes vaporariorum* Westw) g'oya, pomidor, bodring, baqlajon, loviya, kungaboqar, tamaki va boshqa ko'pgina ekinlarga zarar etkazadi. Voyaga etgan hasharot tanasi sarg'ish rangli 1-1,5 mm uzunlikda bo'lib, ikki juft unisiman oqqanotlidir.

Tuxumi ovalsimon 0,24 mm uzunlikda bo'lib, dastlabki bosqichda ular osh sariq tusli bo'ladi. Oq qanot chala rivojlanuvchi hasharot bo'lib, tuxum 1-4 yoshli lichinka, nimfa va voyaga etgan hasharot fazalarini o'taydi. Tuxumdan lichinkasi chiqqan yapaloq, kam harakatchan bo'lib 3 juft oyoqli hamda qizil ko'zli bo'ladi.

Havo harorati 30 °C bo'lganda urg'ochilari 9-11 kun yashasa, erkaklari ulardan 2-3 marta kam muddat yashaydilar. Koloniyada, odatda, oqqanotning hamma rivojlanish fazalaridagi vakillari mavjud bo'ladi. O'simlikni asosan lichinkalari (hamma yoshida) zararlaydi. Lichinkalaridan ajralib chiqqan shira "yopishqoq modda" barglar va mevalarini ifloslanishiga olib keladi. Bu shirada saprofit zamburug'lar rivojlanib, barg va mevalarning usti qora qurum bilan qoplanadi. Natijada fotosintez sustlashib, hatto o'simlik nobud bolishi ham mumkin.



1-rasm. Issiqxona oq qanoti (*Trialeurodes vaporariorum* Westw)

Issiqxona oq qanoti tropik tur bo'lib, asosan, himoyalangan maydonda erta bahordan kech kuzgacha rivojlanadi. O'zbekiston sharoitida ochiq maydonda ham tarqalib, ituzumdoshlar oilasi vakillarini kuchli zararlaydi. Zararkunanda hayotiy davrining davomiyligi, tuxum qo'yish davri, tuxumning ko'p yoki oz qo'yilishi, yashovchanligi turli omillarga bog'liq bo'ladi. Bu omillar ishida asosiylari harorat va havoning nisbiy namligi hamda o'simlik turi hisoblanadi.

Qarshi kurash cho'ralari. Erta bahorda issiqxonalardan dala ekinlariga tarqalishini oldini olish; sariq rangli maxsus yelimlangan ekranlardan foydalanib yo'qotish; o'simliklarning chidamliligini oshirish (o'g'itlash, suspenziya sepish, sifatli kultivatsiya) Almashib ekish, qator oralariga sifatli ishlov berish, ko'llatib sug'ormaslik.

Biologik usul. Enkarziya entomofagini zararkunandaning miqdoriga qarab 1:20, 1:30, nisbatlarda 10x10 m sxemada tarqatish.

Kimyoviy usul. Agarda oqqanotning miqdori ko'p bo'lsa, quyidagi preparatlardan birini qo'llash tavsiya etiladi. Tsipermetrin+xloroprifos asosli (nurel-d, agrofos-d va boshqalar), Imidaklopirid asosli (konfidor, entolucho va boshqalar), mospilan 20% n.kuk. 03 kg, bulkan, kamondor, konfidor, 20% em.k -03-04 l/ga preparatlarining birortasi bilan ishlov berish tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xo‘jayev SH.T., Sulaymanov O.A. Umumiy va qishloq xo‘jalik entomologiyasi hamda uyg‘unlashgan himoya qilish tizimining asoslari; 87 b.
2. Jumaev R.A., Urazmetov M.I., Gozibekov A.S. Issiqxona ekinlari zararli organizmlariga qarshi KURASH B.A.Sulaymanov, 13-bet.
3. <https://hr.agro.uz/mod/resource/view.php?id=262&forceview=1>
4. https://t.me/agrobank_100kitob/143